

MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA SINONIMIK QATORLAR TAHLILI

Ilmiy rahbar: **f.f.f.d. (PhD) Dilnoza Abduvaliyeva**
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti III bosqich talabasi
Fotima Xudoyberdiyeva

Nutqda eng ko'p tarqalgan hodisalardan biri sinonimiya hodisadir. Sinonimlar – ma'nodosh so'zlar – shakli har xil, ammo ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlar bo'lib, har bir tilning nuqt boyligidir. Ma'nodosh so'zlar bir ma'noni xilma-xil so'zlar orqali turli nozik ma'no qirralari bilan ifodalashda, so'z sehrini namoyish etishda, nutqni bezashda, ta'sirchanligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Ma'nodosh so'zlar bir ma'noni ifodalasa ham, lekin ularning ma'no darajasi, ijobiy va salbiy bahoga egaligi, ma'lum uslub xoslanishi bilan farq qiladi¹.

Muhammad Yusuf she'riyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ham shu. U o'z ijodida sinonim so'zlardan mahorat bilan foydalana olgan. Har bir so'zni qadrlagan, uni o'z va ko'chma ma'nolarini topib o'z o'rnidan qo'llay olgan. Bunday usullar she'rlarning rang-barangligini ta'minlab, ularning xalq qalbi va ongiga muhrlanib qolishi uchun imkon yaratgan.

Fikrimizni shoirning hamma uchun tanish va hatto qo'shiq bo'lib kuylangan mashhur "Vatanim" she'ri orqali isbot qilsak:

Men dunyoni nima qildim,

O'zing yorug' jahonim.

O'zim xoqon,

O'zim sulton,

Sen taxti Sulaymonim,

Yolg'izim,

Yagonam deymi,

Toppingan koshonam deymi,

O'zing mening ulug'lardan

¹ R.Sayfullayeva, B.Mengliyev va boshqalar. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent-2009.

Ulug'imsan, *Vatanim*²...

E'tibor bergan bo'lsangiz, shu birgina bandning o'zida bir nechta lug'aviy sinonimlar va uslubiy sinonimlar mavjud. *Jahonim* – *vatanim*, *xoqon* – *sulton*, *yolg'izim* – *yagonam*. She'r tarkibidagi bu kabi sinonim so'zlarning qo'llanishi she'r mazmunining kengayishiga, fikrning rang-barangligini ko'rsatishga, ta'sir kuchini oshirishga yordam beradi.

Shodon kunim *gul* otgan sen,

Chechak otgan izimga.

O, ota *makonim*,

Onajon *o'lkam*,

O'zbekiston, jonim to'shay soyangga,

Senday mehribon yo'q, seningdek ko'rkam,

Rimni alishmasman bedapoyangga³.

Shoir "Iqror" nomli she'rida ham leksik sinonimlardan o'z o'rnida foydalana olgan. Yuqorida keltirilgan misrada esa fors-tojik tilidan kirib kelgan hamda sinonimik qatorning dominanta (ifoda semalari bo'lmagan, betaraf ma'noli leksemalar sinonimik qatorning leksemalar dominant deyiladi) so'zi *gul* so'zga ijobiy bo'yoqdorlikka ega sof turkiycha *chechak* so'zini o'zaro qo'llay olgan. *Vatan* tushunchasini adib *makonim* (arab. "maskan", "vatan" ma'nolarida), *o'lka* (sof turkiy. "mamlakat" ma'nosida) kabi ijobiy bo'yoqdorligi eng yuqori darajadagi so'zlar bilan ifodalamoqda.

Erk *vodiysi* – zahmatlarga siylovdir bu,

Toy qoqilib ot bo'lguvchi *yaylov*dir bu⁴.

"O'zingdan qo'ymasin, xalqim o'zingdan" she'rining bu ikki misrasiga e'tiborimizni qarataylik. Bu ikki misrada *vodiy* va *yaylov* so'zlari o'zaro uslub jihatdan "shartli ravishda" o'zaro sinonimik qatorni tashkil qilmoqda. *Vodiy* so'zi arabchada "qurib qolgan o'zan, jarlik" ma'nosini bildirsa, *yaylov* esa sof turkiy tilda "chorva mollari o'tlaydigan, yoyilib boqiladigan keng dala, maydon"

² Muhammad Yusuf. "Elimda aliyorim qolur". O'qituvchi-2017.13-bet.

³ Muhammad Yusuf. "Elimda aliyorim qolur". O'qituvchi-2017.11-bet.

⁴ Muhammad Yusuf. "Elimda aliyorim qolur". O'qituvchi-2017.16-bet.

ma'nolarini bildiradi. Har ikkala so'z ham "Vatan" tushunchasi bilan o'zaro birlashmoqda.

Menga yering suyuk,

Osmoning suyuk,

Boqsam, teng

To'rttala

Tomoning suyuk.

Tovonimga kirgan

Tikoning suyuk –

Kaftdan

Zirapchang ham

Yulmay sevaman⁵.

"Izhorī dil" she'ridan olingan mazkur parchada, *tikon* so'zi bilan bir qatorda uning sinonimi bo'lmish *zirapcha* so'zi ham keltirilgan. Bu kabi ma'nodosh so'zlarning she'r tarkibida o'z o'rnida qo'llanilishi, ma'noga nisbatan ta'siri, fikrni ifodalashda ko'rsatayotgan xizmati she'rxonning badiiy zavqini yanada oshiradi.

Meni asrar yomon ko'zdan quchoqlaring,

Tol beshik, beshiklar-la munchoqlaring.

Panoh-u *qo'rg'onim* mening, ey soyabonim,

Ona Turkistonim mening, ota *makonim*.

Men ham qatoringda bir jajji bolangman,

Tillaringda jaranglagan *qo'shiq*, *yallangman*,

Sen gullasang men yayrayman, *bog'-u bo'stonim*,

Ona Turkistonim mening, ota *makonim*⁶.

"Ona Turkistonim" she'ridan olingan yuqoridagi bandda *Vatan* tushunchasi ostida *qo'rg'on – makon - bog' - u bo'ston* kabi so'zlar o'zaro sinonimik qatorni

⁵ Muhammad Yusuf. "Elimda aliyorim qolur". O'qituvchi-2017.21-bet.

⁶ Muhammad Yusuf. "Elimda aliyorim qolur". O'qituvchi-2017.24-bet.

tashkil etadi. Har bir soʻzda *Vatan* madhi jaranglaydi va oʻquvchini yanada oʻziga tortadi

Havosi musaffo *gulshaning* boʻlsin,
Avvalo, boshingda Vataning boʻlsin,
Qush boʻlsang, sayrovchi *chamaning* bolsin,
Avvalo, boshingda Vataning boʻlsin⁷.

“Vataning boʻlsin” sheʼridan olingan ushbu misralarda fors tilidan oʻzlashgan *gulshan* va *chaman* soʻzlari ham “*vatan*” soʻzi bilan oʻzaro sinonimlik hosil qilmoqda. Bu esa shoirning soʻz qoʻllash mahorati yuksak ekanligidan darak beradi.

Har kimsaning boʻlsin oʻzin *boshpanasi*,
Har kimsa oʻz *kulbasida* davrin sursin.
Odamni-ku aytmay turay bu dunyoda
Hatto qushning yot butoqda *ini* qursin⁸.

Umuman olganda, Muhammad Yusuf sheʼriyatida “*Vatan*”, “*Ona yurt*” tushunchalari koʻp qalamga olingan. Bu “*Tilak*” sheʼrda ham *boshpana-kulba-in* soʻzlari orqali kitobxonga “*ona yurt*”, “*tugʻilib oʻsgan makon*” maʼnolarini tushuntirmoqda. Kichik bir joy ham “*Vatan*” boʻla olishini yuqoridagi soʻzlar bilan koʻrsatib bergan. Bu esa sheʼrning taʼsir kuchini yanada oshiradi.

Oqqushlarim oq yomgʻirda ucharlar,
Saharlardan shudring-sharob icharlar,
Tanlamayin qabrlarni qucharlar,
Kapalaklar odamlardan mehribon⁹.

Bu misrada esa *oqqushlar* va *kapalaklar* soʻzlarini oʻzaro uslubiy maʼnodoshlikni tashkil qilmoqda. Bu ikkala soʻz ham goʻzallik va jozibadorlik ramzi boʻlganligi uchun ham yonma-yon qoʻllangan.

Men ketsam, yomondan

⁷ Muhammad Yusuf. “Elimda alyorim qolur”. Oʻqituvchi-2017.29-bet.

⁸ Muhammad Yusuf. “Elimda alyorim qolur”. Oʻqituvchi-2017.34-bet.

⁹ Muhammad Yusuf. “Elimda alyorim qolur”. Oʻqituvchi-2017.155-bet.

Yiroq bo'l, *ohu*,
Chunki sen *chiroyli*,
Ko'rkli bir juvon.
... Hali to'ylar qilib
Charchaysan, *erkam*,
...*Gulim*, yaqinroq kel,
Qara, ne *savdo*,
Bu ajib *ishlarni*
Dil lavhiga yoz:
Kimga qasr yetmas,
Kimga *mol-dunyo*,
...*Ko'ksim kuyib borar*,
*Ko'krak yonmoqda*¹⁰.

Hammaning qalbi va yuragidan joy olgan "Lolaqizg'aldoq" she'ridan olingan yuqoridagi parchaga nazar soladigan bo'lsak, shoir yoriga murojaat tarzida qaratilgan misralarida *ohu* – *erkam* - *gulim* so'zlarini "shartli" ravishda, ya'ni shoirning ko'zlagan maqsadini ifodalash uchun o'zaro ma'nodosh so'z sifatida keltirilgan. *Chiroyli* - *ko'rkli* sinonimlari yorning go'zalligini ochib berishga qaratilgan. *Savdo-ish* esa har ikkalasi ham g'am-tashvish, mashaqqat va kulfat ma'nosidagina bir tushunchani ifodalab, she'ring ta'sir kuchi boyib borgan. *Mol-dunyo* so'zlari boylik ma'nosidagi salbiy bo'yoqqa ega bo'lgan tushunchalardir. "*Ko'ksim kuyib borar* - *ko'krak yonmoqda* iboralari frazaviy sinonimik qatorni tashkil qilmoqda. Bu sinonimik qatorlar she'r rang-barangligini ta'minlash, nozik ma'no qirralarini berish uchun qo'llanilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, Muhammad Yusuf har bir she'rni yozishda qo'llayotgan so'zlarni chuqur mulohaza qilib qo'llaydi. Shu sababli ham uning she'rlari xalq qalbiga, kitobxonlar shuuriga kirib borgan. Shoirning ko'plab she'rlari qo'shiq bo'lib kuylanishiga shu ham sabab bo'lgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Muhammad Yusuf. "Elimda alyorim qolur". O'qituvchi-2017.93-bet.¹⁰

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev va boshqalar. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent-2009.
2. Muhammad Yusuf. Elimda alyorim qolur. O'qituvchi-2017.
3. Sh.Rahmatullayev va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2009.
4. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent – "Talqin" -2005.
5. Egamqulova Nodira Bahodirovnaning Abdulla Oripov she'riyatining lingvopoetik tahlili. Dissertatsiya.
6. <http://library.ziyonet.uz>
7. <http://ziyonet.uz>
8. <http://kh-davron.uz>